NA'MATAK (LOT) TURKUMI VAKILLAR VA AMALIY AHAMIYATI

Xalmuratov M. A[1], Abdumurodova A.G`[2], Asatullayeva M. Sh[3]
[1]DTPI dotsenti, [2,3]DTPI talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15618046

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rosa canina - oddiy na’matak o‘simligining morfologik belgilariga, ekologik sharoitdagi yashashiga, kimyoviy tarkibi va xalq xo‘jaligidagi ahamiyatiga ilmiy manbalar asosida tahliliy yondashiladi.*

Kalit so‘zlar: *na’matak, Rosa canina, dorivor o‘simlik, C vitamini, xalq tabobati, botanik tavsif.*

Abstract. *This article provides an analytical overview of Rosa canina (dog rose), focusing on its morphological characteristics, ecological distribution, chemical composition, and significance in the national economy based on scientific sources.*

Keywords: *dog rose, Rosa canina, medicinal plant, vitamin C, folk medicine, botanical description.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются морфологические признаки растения Rosa canina (шиповник обыкновенный), его эколого-географическое распространение, химический состав и значение в народном хозяйстве на основе научных источников.*

Ключевые слова: *шиповник, Rosa canina, лекарственное растение, витамин С, народная медицина, ботаническое описание.*

Kirish: Na’matak (Rosa canina L.) – Na`matak turkumiga mansub, yovvoyi holda o‘suvchi va qadimdan dorivor o‘simlik sifatida mashhur bo‘lgan ko‘p yillik o‘simlikdir. U Rosaceae oilasiga mansub bo‘lib, O‘zbekistonda ham keng tarqalgan. Na’matak mevalari vitaminlar, ayniqsa askorbin kislotasining boy manbai hisoblanadi. Mazkur maqolada oddiy na’matakning asosiy biologik xususiyatlari, ekologik talablari va amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Na’matak Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrikada yovvoyi holda o‘sadi. O‘zbekistonda asosan tog‘oldi zonalarida, daryo bo‘ylarida, butazorlar orasida uchraydi. U quyoshli joylarni, unumdor, yaxshi shamollatiladigan tuproqlarni xush ko‘radi. Qurg‘oqchilikka nisbatan chidamli bo‘lib, sovuqqa ham bardosh bera oladi. Oddiy na’matak mevalarining eng muhim xususiyati unda C vitaminining yuqori miqdorda bo‘lishidir. Ushbu o’simlik mevalarida C vitamini ekzotik limon va apelsinga qaraganda 50 barobar, qora smorodina tarkibidagidan esa 10 barobarga ko’proq. Bundan tashqari, u bir qator foydali mikroelementlar, shu jumladan kaliy, magniy, kaltsiy va natriyni o’z ichiga oladi. Na’matakning foydali ekanligi shubhasiz ko’rinsada, u har qanday dorivor o’simlik kabi, me’yorga amal qilinmasa organizmga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shuning uchun, uning damlamasi bilan vitaminlanishdan oldin, insonga ko’rsatadigan ijobiy va salbiy ta’siri haqida bilib olish kerak.

Na’matak erta bahorda chiroyli pushti rangli gullaydigan, yozning oxiri va sentyabr oyining boshida pishib yetilgan mevalari bilan quvontiradigan ko’p yillik buta. Xalq orasida bu o’simlik «yovvoyi atirgul» deb ham ataladi. Oddiy na’matak mevalarining eng muhim xususiyati

- unda C vitaminining yuqori miqdorda bo‘lishidir. Shuningdek, u tarkibida A, E, K, B guruhi vitaminlari, flavonoidlar, taninlar, pektinlar, shakar va organik kislotalar mavjud. Mevalaridagi askorbin kislotasi (C vitamini) miqdori limon va qora smorodinagaqaraganda ancha yuqoridir. Na’matak mevalari xalq tabobatida ko‘p yillardan beri siydik haydovchi, shamollashga qarshi va immunitetni mustahkamlovchi vosita sifatida ishlatib kelinadi. Undan tayyorlangan damlamalar yurak qon-tomir tizimini mustahkamlashda, qon bosimini me’yorda ushlashda foydali. Na’matak sharbati va choyi bolalar ovqatlanishida, vitamin tanqisligining oldini olishda keng qo‘llaniladi. Farmatsevtika sanoatida esa na’matakdan askorbin kislotasi va boshqa dorivor preparatlar tayyorlanadi.

Na’matak turkumining foydali xususiyatlari: Na’matak mevalari tarkibida mavjud bo‘lgan polifenollar, taninlar va flavonoidlar uni yallig‘lanishga qarshi tabiiy vosita sifatida ajratib turadi. Ushbu moddalar immun javobni tartibga solishda, bo‘g‘imlardagi og‘riqlarni kamaytirishda va surunkalikasalliklarning kechishini yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, artrit va revmatizm bilan og‘rigan bemorlarda na’matak kukuni og‘riqni kamaytiruvchi va harakatni yaxshilovchi vosita sifatida klinik jihatdan tasdiqlangan.a'matakning pishmagan yoki yarim quritilgan mevalari hazm tizimida foydali mikroflorani saqlab qolishga yordam beradi. U probiotik xususiyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa ichak disbakteriozini kamaytiradi. Shu bilan birga, u jigarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi - toksinlarni chiqarish va jigarning detoksikatsiya jarayonlarini faollashtiradi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, na’matak urug‘i ekstrakti tabiiy kollagen ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Bu terining elastikligi va tiklanish qobiliyatini oshiradi, terining erta qarishiga qarshi samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Ayniqsa, chandiq va ajinlarga qarshi ishlatiladigan krem va malhamlar tarkibida na’matak yog‘i tez-tez uchraydi. Na'matakdan tayyorlangan sirop yoki murabbo yurak urishining barqarorligini ta’minlaydi, stressni kamaytiradi va asab tizimini tinchlantiradi. Uning sedativ (tinchlantiruvchi) ta’siri tufayli, uyqusizlik va asabiylikda ham foydali bo‘lishi mumkin.Shuningdek, na’matak mevalari temir moddasiga boy bo‘lib, kamqonlikda foydali bo‘ladi. Ayniqsa ayollar va o‘sayotgan bolalarda qon tarkibini yaxshilash, gemoglobin miqdorini ko‘tarish uchun samarali vosita sifatida iste’mol qilinadi.

Na'matak turkumining zararli xususiyatlari: Na’matak (Rosa) turkumiga kiruvchi o‘simliklar asosandorivor va foydali xususiyatlari bilan mashhur bo‘lsa-da, ayrim hollarda ularning salbiy ta’sirlari ham kuzatilishi mumkin. Ushbu turkumdagi o‘simliklar tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, mevalari, barglari va hatto ildizlaridan turli maqsadlarda foydalaniladi. Biroq, bu o‘simliklar inson salomatligi, atrof-muhit yoki qishloq xo‘jaligi uchun ayrim hollarda zarar keltirishi mumkin.

Birinchidan, na’matak mevalari — itburun tarkibida juda ko‘p miqdorda C vitaminimavjud. Bu foydali bo‘lsa-da, ortiqcha miqdorda iste’mol qilinsa, ich ketish, oshqozon-ichak bezovtaliklari, buyrak faoliyatiga ortiqcha yuk tushishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, ba’zi insonlarda ushbu o‘simlikka yoki uning preparatlariga allergik reaksiyalar, teri toshmalari, qichishish, hatto nafas olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, na’matak o‘simliklarining ayrim turlari invaziv xususiyatga ega bo‘lib,ya’ni ular boshqa o‘simlik turlarini siqib chiqarib, mahalliy flora va ekotizim barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularning tez ko‘payishi va keng tarqalishi tabiat muvozanatini buzadi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Uchinchidan, bu o‘simliklar qalin va tikanli buta

shaklida o‘sadi. Ularning o‘tkir tikanlari odamlar yoki hayvonlar uchun jarohatlanish xavfini tug‘diradi. Ayniqsa, bolalar uchun bu xavfli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ushbu tikanli butalar yaylov yoki dala yerlarda yovvoyi tarzda ko‘payib, dehqonchilik ishlariga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ularni yo‘qotish yoki nazorat ostida ushlab turish esa qo‘shimcha mehnat va moddiy xarajatlarni talab etadi.

Demak Oddiy na’matak (Rosa canina) o‘zining dorivor xususiyatlari va ekologik moslashuvchanligi bilan alohida e’tiborga loyiq o‘simlikdir. Uning mevalari nafaqat xalq tabobatida, balki zamonaviy tibbiyotda ham keng qo‘llanilmoqda. Shu bois, na’matakning tabiiy resurslarini asrash, uni sun’iy ekish va ko‘paytirishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A.K., Turgunov O.T. O'simlikshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019
2. Rakhimova Sh.S. Dorivor o‘simliklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Tursunov A., Axmedov X. O'simliklar ekologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Flora of Uzbekistan, Volume V. – Tashkent: Fan, 1980.
5. Barros L., Carvalho A.M., Ferreira I.C.F.R. The nutritional composition and bioactive properties of Rosa canina L. – Food Research International, 2011.